

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

402-guruh talabasi Allaberganova Dinoraning

“Kasb-hunar kollejlarida pedagogic muloqotni samarali tashkil qilishning
psixooogik omillari” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR:
Nurullayeva B.

ps.f.n., katta o'qituvchi

TAQRIZCHI:

XVPKQTMOI dotsenti K.Sobirov

URGANCH 2012

MUNDARIJA

Kirish.....	1-8
1. Psixologiya fanida pedagogic muloqot jarayonining nazariy taxlili...8-38	
1.1. Jahon va O'zbekiston psixologlari tomonidan pedagogic muloqotning o'rganilishi.....9-39	
1.2. Pedagogik muloqot jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.....40-47	
2. Kasb-hunar kollejlarda pedagogic muloqotni samarali tashkil qilish jarayonini o'rganish..48-55	
2.1. Kasb-hunar kollejlarda pedagogic muloqot jarayonini tashkil qilish jarayoninin tajribada o'rganish	48-55
2.2. Psixologik treninglar yordamida pedagogic muloqot samaradorligini oshirish.....	56-65
Xulosa.....	66-68
Adabiyotlar ro'yxati.....	69-70

Kirish

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar barcha soha vakillariga yangicha talablarni qo'ymoqda. Xususan kasb-hunar kolleji pedagoglari ham o'ziga xos kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari maqsadga muvofiq. Kasbiy tayyorgarlik uning ruhiyati jismoniy holati va sog'ligi, undagi sifatlarning bajarayotgan faoliyat talablariga mosligi darajasi tushuniladi.

Davlatimizning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" o'qituvchi ijtimoiy hayotimizda faol ishtirok etuvchi kasb sohibi sifatida boshqa mutaxassislardan farqlanadi. Zero, ularga yuklatilgan ish nihoyatda ma'suliyatlidir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek "Biz farzandlarimizga nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi balki ularning eng zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javbob beradigan barkamol avlod bo'lib etishishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganmiz". [3. 28 bet]

Bu katta vazifani asosiy amalga oshiruvchilar pedagog o'qituvchilar hisoblanadi. Hozirgi kunda mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorgarligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassislar odamlar bilan kasbiy muhitda konstruktiv va samarali o'zaro yaqin aloqalar xodimlar va rahbarlar bilan samimiy va shaxsiy o'zaro munosabatlarga tayyorligi va bu munosabatlarni samarali tashkil qilish, o'rgana olish va rivojlantirishga qodirligini ko'zda tutadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan davlatimiz yoshlarini yitangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash dolzarb va ustivor vazifalardan biridir.

Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning rivoji yoshlarning ma'naviy qiyofasiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Bu vazifani amalga oshirish insonni o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarni teran tafakkur etishni taqozo etadi.[4.20 bet]

Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sharqda o'ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos xolda qaror topgan. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni viyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda.

Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Muloqot bilan bog'liq muommolar psixologiya fanida chuqur o'rganilgan. Unga tayanib insonning ruhiy taraqqiyotini uning atrofdagilar bilan bo'ladigan aloqasini individning shaxs bo'lib shakllanishini muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki muloqot ham insonning o'ziga xos ehtiyojlaridan biri. Muloqot inson

hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi. Uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi.

Muloqot psixologiyasi sohasidagi bilimlarni yoshlar, asosan, o'quvchilarga yetkazish, ularni psixologik savodxonligini oshiradi. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyasini yuksaltirishga pedagogic faoliyatni muvofiqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Pedagogic jarayonda muloqot orqali ta'lim tarbiyaning samarali yordam beruvchi favqulodda muhim tarbiyaviy faoliyatning har bir turida mavjuddir.

Shunday faoliyat turi mavjudki, unda muloqot faoliyatga tegishli, faktordan kasbiy mazmundagi asosiy katigoryaga aylanadi. Psixologiya va pedagogic-psixologiya, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiya sohalarida muloqot jarayoni keng qo'llanilishicha, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinayotgan kompleks muommo sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Respublikamiz va xorij olimlari tomonidan muloqot jarayoni keng o'rganilgan, xususan, muloqot uslublari, perseptiv muloqot darajalari kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va tarkib toptirish masalalari turlarida ijobiy pedagogic muloqot ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni oilaviy va uzluksiz ta'lim tizimidagi tarbiyaviy jarayonda muloqotning o'rni va ro'li tadqiq qilingan.

Respublikamiz psixologlari Karimova V., Maxsudova M., G'oziyev E., Mahmudov I. va boshqalar tomonidan muloqot ko'nikmalari tarkib topishi masalalari keng qo'llashda o'rganilgan.

Muommoning ko'lami kengligi kasb-hunar kollejlari, uzluksiz ta'lim tizimining yeti bosqichi bu tizimdan pedagogic muloqotni o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish va samarali muloqot talqin qilish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimizning maqsadi: uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan kasb-hunar kollejida pedagogic muloqotni samarali tashkil qilishning psixologik omillarini o'rganish. Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqotimiz vazifasini belgilaymiz.

1. Psixologiya fanida muloqot xususan pedagogic muloqot muommo;ariga bag'ishlangan nazariy ma'lumotlarni taxlil qilish va umumlashtirish.
2. Pedagogic muloqotni samarali tashkil qilishning psixologik omillarini o'rganish va tavsiflash.

3. Kasb-hunar kollejlarda o'qituvchilar uchun pedagogic muloqotni samarali tashkil qilishning psixologik omillari assosida tavsiyalar shakllantirish.
4. Kasb-hunar kollejlarda pedagogic muloqot jarayonini so'rovnoma va testlar yordamida o'rganish ma'lumotlarni umumlashtirish va taxlil qilish.

Tadqiqotimiz predmeti.

Kasb-hunar kollejlarda olib borilayotgan pedagogic jarayoni

Tadqiqotning ob'yekti.

Kasb-hunar kollejlarda faoliyat yuritayotgan pedagogic o'qituvchilar.

Tadqiqotimizning metodlari.

1. Suhbat va so'rovnomalarda o'tkaziladi.
2. Pedagogic muloqot samaradorligini tashxislashga qaratilgan kommunikativlik va tashkilotchilik mayllarini o'rganish testi, muloqotchanlikni baxolash testi va tinglash ko'nikmalarini o'rganuvchi testlar turlari.
3. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi trening mashg'ulotlari.

Tadqiqotning metodologik asosi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat rasmiy hujjatlari, Prezidentimiz I.A.Karimovning "Barkamol avlodni" tarbiyalash xususidagi g'oyaligi, Umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogic psixologiya sohasidagi nazariy ma'lumotlar tadqiqotining metodologik asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotning ahamiyati.

Mazkur tadqiqotda pedagogic samarali tashkil qilishning psixologik omillarini tahlil qilish va umumlashtirish tadqiqotning nazariy ahamiyatini tashkil qilsa tadqiqotning amaliy ahamiyati Kasb hunar kolleji pedagogic muloqot jarayoni tashxislash va pedagogic muloqotni samarali tashkil qilishga oid tavsiyalarni ishlab chiqishganida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning farazi; Agarda Kasb-hunar kollejlarda pedagogic muloqotni tashkil qilishda alohida tadqiqotlarda o'rganilgan psixologik omillar va ta'lim muassasasining ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda tashkil qilinsa pedagogic muloqotni yuqori samaradorligiga erishisg mumkin.

Himopyaga olib chiqiladigan holatlar.

- Psixologiya fanida pedagogic muammolarning o'ziga xos xususiyatlari.
- Pedagogic muloqotni samarali tashkil qilishning psixologik omillari.
- Kasb-hunar kollejlarda pedagogic muloqotni so'rovnoma va testlar orqali o'rganish va tavsiflab berish.

Tadqiqotning tuzilishi.

Bitiriv malakaviy ishi Kirish, 2-bob, 4ta pragrfdan, xulosa, adabiyotlar ro'yhati va ilovadan iborat.

I bob. Psixologiya fanida pedagogik muloqot jarayonini nazariy taxlili.

1.1 Jahon va O'zbekiston psixologlari tomonidan pedagogik muloqotni o'rganilishi. So'nggi yillarda psixologlari shaxslararo munosabatlarda hamkorlik muommosiga bo'lgan qiziqishi keskin ortib bormoqda Bodolov A.A, Davidov K.K, Elkonin, D.B Leynuts X.I shu olimlar bu masalani asosan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish muommosi bilan bog'liq bo'lgan xulosa o'rgandilar. Ammo o'zlashtirish va shaxsni tarbiyalash jarayoni sun'iy ravishda bir-biridan ajratiladi. V. Ya. Lyadus ta'lim jarayonidagi hamkorlikni alohida o'rgangan. Uning fikricha shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, ta'limdagi hamkorlikni quyidagicha taxlil qilish lozim. a) ma'lum o'quv fanida o'quvchilarni aqliy rivojlanishini maqsadga yo'naltirilgan holda olib borish kerak. b) o'quvchi o'quvchi tizimidagi aloqalarni maqsadga qarqtilgan holda o'zgartilib boriladi.

Bilimlarni o'zlashtirishni fan bilan bog'liq holda emas, balki shaxsning rivojlanish jarayoniga yondashganday taxlil qilib, insonni o'zlashtirayotgan predmeti bilan aloqasini ham o'rganish maqsadga muvofiq. Taxlil qilganda bu tizim asosan quyidagilarga asosan yuritilishi va tayanishi kerak va ular hamkorlik jarayonini motivlari va hamkorlikni qaysi vazifalarga javob beradi, o'rganishimiz lozim.

Bu mavzuni yoritish uchun ta'limni o'qituvchi va o'quvchini hamkorlikdagi faoliyati sifatida baholab bu faoliyat jarayonida muloqot va hamkorlik shakillari o'zgarib shakillanib borishi hisobga olinishi kerak. Ta'lim jarayoninibu konteksdagi tahlil qilar ekanmiz, shaxsni rivojlantirish uchun muhim bo'lgan yetakchi o'qish hamkorlik shaklini aniqlaymiz.

Yetakchi hamkorlik o'qituvchi va o'quvchini ham yuqori darajadagi aktivligini ko'zda tutadi ularni hamkorlikdagi umumiy o'quv maqsadiga kirishishdagi aloqalari boy va serqirra bo'ladi. Boshqa hamkorlik turlariga qaraganda ta'limdagi hamkorlik kuchli motivatsiyaga ega bo'lishi kerak, chunki bu vazifalarda ijtimoiy tajriba o'zlashtiriladi. Demak, ta'limni qaysi shakli yetakchi hisoblanishi mumkin? Buni aniqlash uchun shunday faoliyat shaklini aniqlaylikki u boshidanoq o'quvchini ijodiy faoliyatini ta'minlasin.

An'anaviy ta'lim tizimida asosan ham birgina turi keng tarqalgan. Bu hamkorlik turida o'qituvchi va o'quvchi ro'llari uzoqlashgan holda namoyon bo'ladi.

O'quvchini faolligi cheklangan va asosan o'qituvchiga tadqiq qilish shaklida namoyon bo'ladi. Va bunday o'qish hamkorligi ta'limda reproduktiv tajriba o'zlashtirishni taqazo etadi. Bunday o'qish aloqalarini ta'limni barcha tizimida ustunligi o'z natijalarini ko'rsatib turibdi.

Taqlidchilik faoliyatini keng tarqalishi hamkorlikni va ijtimoiy aloqalarni cheklab qo'yimoqda. Ta'limda aloqa shaklini o'zi alohoda ajratib o'rganilmaydi va shuni natijasida o'quvchini pozitsiyada o'zgar olmaydi. O'qish motivlarini shaxsiy va manaviy yo'qlanganligi yo'qolib, faqat bilim olishga va o'quv predmetni o'ziga yo'nalib qoladi. Ta'lim jarayoni faqat intellektual nuqtai nazardan tahlil qilinadi, ta'limdagi hamkorlik va muloqot o'rganilmaydi. Ta'limdagi hamkorlik shaklidagi muommo muhimdir.

Ta'lim jarayonidagi shaxslararo aloqalarni ma'lum shakli o'qishni o'ziga shunday yo'nalishni beradiki, shaxsda o'qish davomida psixik jihatdan yangi bo'lgan tizimlar paydo bo'ladi. Tadqiqotchilik ta'lim jarayoni uchun muhim. Ammo taqlidchilik bilan cheklanib qolmasdan, uni keng bo'lgan yuksak darajadagi o'qish hamkorligiga o'quvchilarni shaxsiy samarali faoliyatga yo'naltirilsin. Faqat shu vaziyatdagina taqlidchilik shaxsini o'z faoliyatni tashkil qilishini samarali vositasi bo'lib qoladi. Eng yaxshi namunalariga taqlid qilgan holda o'qish, o'z faoliyatida ham yuksak natijaga erishishni talab qiladi.

O'quvchini reprodaktiv faoliyati praduktiv faoliyatini bir komponent qismi bo'lib qoladi.

Demak, o'quv dasturlarini tuzish jarayonini emas balki munosabat va muloqot tizimi ham shakillanadi. O'qituvchi va o'quvchini ta'limdagi hamkorligi o'qishni motivatsiyasini bilish faoliyatlarini samaradorligini belgilab beruvchi muhim omilidir. Ular o'quvchini bilish funksiyalarini aynan o'qituvchi va o'quvchi hamkorlik tizimida shakillantiriladi.

3. Bilish funksiyalarini rivojlanishida o'quvchini shaxsiy praduktiv o'qish hamkorligi kuzatilishi mumkin. U shaxslararo munosabatlarni butun boyligi serqirraligini fanni o'zlashtirish davomida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. O'qishdagi hamkorlik strukturasi o'zgarishi lozim. Hamkorlik shakllari quyidagicha mantiqiy asoslangan holda olib borilishi kerak.

O'quvchi bilan birgalikda hatti- harakatlar bajariladi, birgalikdagi taqlid qilish, o'z-o'zini o'qitish. Demak, ta'lim jarayoni boshidanoq o'quvchilar ijodiy samarali produktiv hamkorligiga yo'naltiriladi va ularning hamkorlik shakillari maxsus tuziladi.

4. O'qituvchi va o'quvchini hamkorligi o'quvchi faoliyatini samaradorligini taminlaydi. O'quvchi o'qituvchi yordamida natijaga erishadi, garchi zaruriy ko'nikmalarni hali to'liq o'zlashtirgan bo'lmasa ham o'quvchi o'qituvchi bilan hamkorlikda bo'lar ekan, ularni faoliyati birdan zaruriy ko'nikmalarni o'zlashtirishga emas, balki uning faoliyati elementlarini o'zlashtirish orqali ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan natijasiga erishishi mumkin.

Bunday tashkil qilingan hamkorlik chegaralarida o'quvchi ko'nikma va o'piratsiyalarini ularni tor mazmunida emas, balki keng, ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo'lgan o'zlashtirgan faoliyatni ijtimoiy ahamiyatini olib boruvchi jarayonida o'rganadi. O'quvchi bu jarayonga kirib borar ekan u o'zini shaxsini yaratuvchilik imkoniyatini va ahamiyatini angelaydi. Bu anglash o'qituvchi yordamida umumiy maxsulot yaratish davomida bo'lib o'tadi. Garchi u o'zi tayyor natija yaratish imkoniyatiga ega bo'lmasada baholi qudrat o'zini hissasini umumiy natijaga qo'shadi. A.N Leontiv shaxsni strukturasi muhim komponenti sifatida- maqsadga intilishi mazmun va mohiyatini yaratish xususiyatini ko'rsatib o'tgan.

Demak, ta'limni eksperimental modelida yangi shakillantirilayotgan faoliyatni barcha funksional karakteristikasi ko'rsatilishi shart. Ammo ularni o'zlashtirilishi ta'lim hamkorligi sharoiti bilan belgilanadi. Demak faoliyatni o'zlashtirish tartibi uni obektiv hatti-harakatlari tomonidan emas, balki to'liq faoliyatini shakillanishini mantiqiy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda tuzilishi kerak.

Shuning uchun ham o'qituvchi va o'quvchini faoliyatini dastlabki bosqichlaridayoq birgalikdagi faoliyatni yuqori yetakchi darajada ko'rilishi kerak. Bunday tartib o'quvchini og'ir kundalik mehanik yodlash va ijodiy bo'lmagan faoliyatdan chiqara oladi. Chunki bunday sharoitda faoliyat shakllanishi eng yuqori darajadagi maqsaddan emas balki mayda elementlardan boshlanadi. Mazmunini belgilab bergandan keying o'zlashtirish mayda operatsiyalarini balki hamkorlik uslublarini ham o'zlashtiradi.

V.Ya Lyudus bildirgan asosiy fikrlar quyidagicha:

1. Har o'quvchi praduktiv masala yechish faoliyatini ohirida emas, boshida boshlanishi kerak. Bu jarayon o'qituvchi bilan hamkorlik asosida mahsus tuzilishi bo'lishi lozim.
2. O'zaro aloqa va hamkorlik sharoitlari produktiv masala yechishni samarali uslubi va o'quvchilar tomonidan bilim olish va muloqot usullarini o'zlashtirish

yo'li bo'lib, o'quvchilar muloqot jarayonida o'zgaradilar va ularda o'z- o'zini boshqarish mehanizmlari shakillanadi. Hamkorlikdagi masala yechish davomida o'quvchilar maqsad qo'yish mehanizmlarini o'zlashtiradilar maqsad qo'yish yangi faoliyatni operatsional texnik vositalarni o'zlashtirishni motivlashtiradi va samaradorligini ta'minlaydi. V.Ya Lyadus o'ziga xos o'quv eksperimental modelni tabiiy o'quv tajriba davomida tekshirgan.

Eksperimental tadqiqotda samarali hamkorlik sharoiti o'rganiladi buni ilmiy farazi quyidagicha:

- Samarali hamkorlik o'quvchilarni motivlarini kengaytiradi va yuqori motivatsiyani ta'minlaydi.
- Samarali hamkorlik bilish jarayonini rivojlantiradi, bilim olish ko'nikmalarini fanga xos bo'lgan tizimni shakillantiradi va bundan tashqari chuqur shaxsiy o'zgarishlarga olib keladi.

Tadqiqotda 5 masala yechiladi.

1. Ta'limni tajriba modeli konkret materialda ishlanadi. Yozma nutq misolida o'rganiladi. Chunki bu jarayon juda ahamiyatlidir. Yozma nutqni, nutq faoliyatini maxsus turi sifatida strukturaviy modeli tuziladi.
2. Tuzilgan modekni samaradorligini belgilash uchun ko'rsatkichlar belgilab berildi.
3. Diagnostik tadqiqot orqali modekni sinab ko'rildi.
4. Qiyosiy tadqiqot o'tkazildi.(mazmun va ma'no orqali elementar texnik holatlar)
5. O'qishdagi hamkorlikni yosh dindmikasini aniqlash (1-2 sinf, 4-5 sinflarda) tadqiqot olib borilgan. Yozma nutqni o'rgatishni birligi bu- matn(so'z va gap emas) chunki nutqni kommunikativ va belgilovchi(mazmunni) va hakazo funksiyalari matnlarda mujassamlashadi.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni yechish uchun 2 ta tajriba tadqiqotlari o'tkazilgan, u asosan o'rta maktabni 1-5 sinflarida olib borilgan.

Tadqiqot jarayonida yozma nutq faoliyati shakillantirilgan, bu faoliyat ta'limda katta ahamiyatga ega. Dastlab tadqiqotchilar yozma nutqni xatti-harakat va operatsiyalarni aniqlab olganlar keyin o'rganish birligi sifatida yozma matnni belgilaganlar.

So'ngi bosqichda o'quvchilarni o'zlari ijod qilgan holda hikoya va ertak tuzganlar. Aynan shu vazifa bayon va insholardan farqli holda o'quvchini mustaqil holda ijodga chorlaydi. Ertak va hikoya tuzishda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda bo'ladigan yoki o'qituvchi boshlagan ertakni o'zolari yakunlaydi va h. k. Shu tarzda individual dialogdan kelib chiqqan. Shu yo'l bilan hamkorlikdagi ijod o'qish motivlarini kengaytirgan.

Tadqiqotchilar yozma nutqni baholashni 8 ta nizomini ajratganlar (gaplarni kengligi mazmuniyligi mantiqiy bog'liqligi va h.k).

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib ular insonning ichiga kiradi.

Shaxsning tafakkuri olamni va o'zining o'brazi taxlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muommoga atroflicha baho bergan Polshalik psixolog Us. Melibruda quyidagilarni takidlaydi: “ Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir”

Muloqot o'ta murakkab jarayon bo'lganligi sababli unga yagona tushunchasining mazmunini uning ayrim tomonlariga urg'u berish orqali tariflanadi. A) Muloqot-hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqozalangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni.

B) Muloqat- subektlarning belgilar tizimi orqali o'zora ta'sirlanishuvi

A. Petrovskiy tahlili ostida chiqqan “Umumiy psixologiya” darsligida muloqat ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash o'zaro ta'sir va bir –birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi.

M.G Davletshin muallifligida chop etilgan “Umumiy psixologiya ” o'quv qo'llanmasida muloqat-bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv boshlovchi harakatida va bilish bo'yicha ma'lumot almashuvidan iborat bo'lgan o'zora ta'sir etishdir.-deb ta'kidlanadi.

M.G Davletshin rahbarligida chop etilgan “ Psixologiya” qisqacha lug'atida muloqatga quydagicha ta'rif beriladi. Muloqat 2 yoki undan ortiq odamlarning o'zora bir-biriga ta'sir etishidir.

Yuqoridagi ta'riflarga muvofiq muloqatga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: Muloqat kamida 2 kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib but a'sir ahborot almashunuvidan iborat emas chunki muloqat jarayonida muloqat uzatiladi, balki shakllantirildi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqatini shunchaki

muloqat jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga shunki haratlanmaydi, faol almashiladi.(Komunikativ jarayon ishtirokchilar bir-biriga axborot yuborilayotganda bir-birining motivlari maqsadlari, ustunovkalari va boshqalarni tahlil qiladilar)

Ikkinchidan muloqat jarayonida axborot almasha turib kishilar belgilar orqali bir-biriga ta`sir etish mumkin.(Insonlaro axborot almashuvida albatta suhbatdosh xulq-atvorida muayyan ta`sir o`tkaziladi.

Uchinchidan muloqat jarayonida kommunikator (axborot yuborilayotgan odam) va resipient (axborotni qabul qilayotgan odam) bir-xil kodlashtirish tizimiga ega bo`lishi kerar; To`rtinchidan muloqat jarayonida faqat insonlararo kommunikatsiyaga xos tariflar vujudga kelishi mumkin. Kommunikativ jarayonda qollanilayotgan bir necha belgilar tizimi mavjud. Ular verbal kommunikatsiya (nutq orqali) va noverbal (nutq bilan bo`g`liq bo`lmaydigan belgilar orqali) kommunikatsiyadir.

Verbal kommunikatsiyadir. Inson nutqi belgilari tizimi sifatida qo`llaniladi. Nutq-inson tomonidan qo`llaniladi tovush signallari yoki yozmabelgillardan iboratblib, ular orqali muloqatdan olingan ma`lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi.

U jarayon til orqali amalga oshiriladi. Til so`z belgilari tizimi bo`lib, u muloqat jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo`lib ham yuzaga keladi. Til muomila voositasidir. Til muomilaga kiruvshilar o`rtasidagi kommunikatsini taminlaydi, chunki un axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushuniladi.

Har bir alohida odamning harakatlari va faoliyatlarini boshqa odamning harakati va faoliyatlarini 3 ta muhim omil belgilaydi.

Birinchiidan; butun insoniyatning yoki muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy-tarixiy tajribasini belgilaydi.

Kichkina bola dunyoni mustaqil ravishida bilib olmaydi. U ota-ona siga savollar beriladilar, bu javoblardan bola o'z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning ozgina qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham shunday bo'ladi. O'quvchi olam haqida barcha bilimlarni o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan ya'ni til yordamida o'zlashtiradi. Bu yerda til o'zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan ya'ni yashash vositasi ijtimoiy tarixiy tajribani berish o'zlashtirish vazifasi tarzida namoyon bo'ladi.

Ikkinchiidan har bir alohida odamning ish-harakati va faoliyatini ko'pincha ijtimoiy qiymatga ega bo'lmagan o'zga kishilarning bevosita tajribalarini belgilaydi. Masalan: Men oshxona tomon yo'l olaman. Yo'lda menga o'rtog'im uchrab: "Oshxona yopilgan" deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib boshqa oshxona tomon jo'nayman. Bu yerda til o'zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya'ni vosita sifatida namoyon bo'ladi. Natijada har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta'sir qilishdan iboratdir.

Uchinchiidan: har bir alohida odamning ish-harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning "shaxsiy" o'z individual tajribasi kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o'ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli o'laroq o'z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirish umumiy fikriy aytilayot fikrlarning izchilligiga e'tibor berish kerak.

Biologik nutqqa nisbatan monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak. 2 va undan ortiq kishilar o'rtasidagi nutq diolog deyiladi. Diolog nutqda bayon qilinayotgan fikr ko'p jihatdanundan oldingi fikrga bog'liq bo'ladi. Diologik nutqda suhbatdoshlarga ma'lum bo'lgan ayrim so'zlar tushurib qoldiriladi.

Shuning uchun yozib olingan diolog boshqalarga unchalik tushunarli bo'lmasligi mumkin. Diologik nutqda har xil rurdagi shablonlar ya'ni odatlanib qolingan so'z birikmasi ko'p uchraydi (qoyil, marhamat, aytingchi). Nutqning ichki nutq deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasi sifatida namoyon bo'ladi. Bir so'zni chala yarim aytishimiz bilanoq tushunamiz. Ichki nutq ayrim og'zaki nutq aktlaridan ilgariroq, xususan, ixtiyoriylik darajasi yuksakroq bo'lgan og'zaki nutqdan afzalroq. Muloqotning kommunikativ akt sifatida quyidagilarni tasavvur etishi mumkin. Kommunikatr adrisant:

1. Retsipent adrisant.
2. Ma'lumot.
3. Kod
4. Maqsad.
5. Aloqa kanali .
6. Natija .

Muloqot subyekti sifatidagi omillar namoyon bo'ladi.

1. Bu ma'lumot kimga uzatilmoqda.
2. Nima uzatilmoqda
3. Qanday vositalar asosida

4. Nima uchun uzatilmoqda.
5. Ovoz, xat, efir orqali aloqa.
6. Nimaga erishildi.

Shuningdek amerikalik jurnalist Lassius 5 unsuridan iborat bo'lgan kommunikativ jarayonning modulini taklif etadi.

- Kishi (axborot kim tomonidan uzatilmoqda).
- Nima (qanday axborot uzatilmoqda).
- Qanday (axborot qanday yo'l bilan uzatilmoqda).
- Kinga (axborot kinga yo'naltirilmoqda).
- Qanchalik samarali (axborot qanchalik samarali uzatildi).

Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini tushunishlari juda muhimdir. Bunda nutqning quyidagi muhim sifatlari paydo bo'ladi, ya'ni, mazmundorlik, tushunarlik, ta'sirchanlik ko'rsatiladi. Buyuk fransuz yozuvchisi A. Ekspyuriy "Muloqot shunday ne'matki, bu orqali inson lazzatlanadi" deb yozgan edi.

Ta'lim jarayonida hamkorlik muommolari alohida e'tiborga muhtojdir. Bu masalani yechish ta'limni boshqarishni samarali shakllarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan ta'lim va tarbiya masalalari uyg'unlikda yechiladi. Shunday qilib, psixologiya fanida:

- Verbal muloqotda bo'lish.
- Aralash usul

Demak, darsda ko'pgina aralsash usuldan foydalaniladi. Olimlarning fikricha yuz ifodasi va imo ishoralar orqali axborot beriladi.

Obyektning qalbini zabt etish bosqichi pedagogic muloqotni tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega.

Muloqotning qonuniyatlarini, malaka va qobiliyatlarning rivojlanishini bilish pedagog uchun zarurdir. Bu to'laqonli pedagogik muloqotni yoki muomilani yo'lga qo'yishda g'oyat muhimdir. Pedagogic muloqot pedagog va o'quvchilarning o'zaro ta'sir etish usullari yig'indisidir.

Muloqotning mazmunini axborot almashish o'qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o'quvchilar bilan o'zaro tashkil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarini o'quvchilar hamda o'qituvchilar jamoasi o'rtasida munosabatlarni ta'minlamay turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Muloqot jarayoniga oid nazariy ma'lumotlarni keltirdik. Mazkur muammo O'zbekiston uzoq va yaqin xorij olimlari tomonidan keng o'rganilgan muommolardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan o'braz va modellari shakillanib keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri olamini va o'zining o'brazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakillanadi. Mazkur muommoga atroflicha baho bergan Polshalik psixolog Us.Melebruda quyidagilarni takidlaydi. “ Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir”. Muloqot o'ta murakkab jarayon bo'lganligi sababli unga yagona to'g'ri ta'rifni berish juda mushkuldir. Shuning uchun odatda

muloqot tushunchasining mazmunini uning ayrim tomonlariga urg'u berish orqali ta'riflanadi.

- A) Muloqot hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqozalangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni.
- B) Muloqot-subektlarning belgilar tizimi orqali o'zaro ta'sirlashuvi orqali A.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi.

Yuqoridagi ta'riflarga muvofiq muloqotga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Muloqot kamida ikki kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir muloqot vazifasida hamkorligidagi faoloyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoloyat davomida insonlar o'rtasida yangi- yangi munosabatlar va aloqalar shakillanadi. Demak muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Pedagog faoliyatining muhim jihati e'tiborini o'ziga tortish bo'lib, bola bilan samarali muloqotni amalga oshirishdir. Ularga to'g'ri tarbiya berish, ularga tushuntirish maqsadida qo'yiladi. Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'siri sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqoy ijtimoiy nazorat sharoitida ro'y berdi. Bir kishi turli muloqot vazifasida turli ro'llarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida

director, kasal bo'lsa shifokor ko'rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota-onasining qobil farzandi, mehmondo'st oila boshlig'I bo'ladi. Turli ro'llarni bajaruvchi kishilarning o'zaro munosabati ro'l kutishlari bilan boshqariladi. Hohiyadimi yoki yo'qmi atrofdegilar undan ma'lum na'munaga mos keluvchi xulq-atvorni kutadilar. Agar ro'l yaxshi bajarilmasa, ijtimoiy nazorat tamonidan baholanadi, ozmi- ko'pmi cheklanishlar qilinadi.

Muloqotning bevosita muvoffaqiyatining sharti o'zaro ta'sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasini qo'llashidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va undan nimani ko'rishga tayyor ekanligini to'g'ri, aniq, hatosiz ko'chira olish qobiliyati fakt deb ataladi. Ma'lumki pedagogik faoliyatda fakt muhim komponent hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogic jarayon o'qituvchi va o'quvchilarning uyishgan faoliyatlari asosida tuzilgan, shu bois o'qituvchi pedagogic jarayonni o'quvchilar jamoasidan tashkil topganligini unutmasligi har bir o'quvchi shaxsini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O'quvchilar bilan psixologik aloqalarning qisqa muddatga bo'lsada yo'qolishi og'ir oqibatlarini vujudga keltiradi. Muloqotning interaktiv tomoni deganda, birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda muloqot ishtirokchilarining bir-biriga ta'sir o'tkazishi tushiniladi. Kommunikatsiya orqali odamlar birgalikdagi faoliyatni tashkil etadilar. Umumiy faoliyatda ishtirok etar ekan, odamlar bir-biriga ta'sir ko'rsatadilar. Shuning uchun o'zaro ta'sir birgalikdagi faoliyatning tashkil etilishi sifatida tushiniladi.

Birgalikdagi faoliyatning 3 xil modeli mavjud:

-Har bir ishtirokchi boshqalarda mustaqil ravishda ishning o'ziga tegishli qismini bajarishi (masalan shanbalikdagi)

- Umumiy vazifani bosqichma- bosqich har bir ishtirokchi tomonidan bajarilishi

- Har bir ishtirokchi boshqalar bilan birgalikda bir vaqtning o'zida umumiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi (masalan, futboll jamosidagi ish)

Odatda muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sirning 2 xil turi ajratiladi.

a) Kooperatsiya asoslangan o'zaro ta'sir- kommunikativ jarayon ishtirokchilarining umumiy maqsad yo'lida o'z kuchlarini birlashtirishdan iborat. Kooperatsiyalarning bir necha turi farqlanadi.

Avtomatik (intinsiv-biologik darajada mavjud bo'ladi)

Avtomatik (tarkib topgan ijtimoiy meyorlari bilan an'ana va urf-odatlar bilan taqozalangan bo'ladi)

Sponsam-(do'stlik, muhabbat shu kabi munosabatlar bilan taqozalangan bo'ladi)

Deriktiv- (majburiy hamkorlik hokum suruvchi joylarda mavjud bo'ladi)

Shartnomaviy- (rasmiy kelishuvlar bilan taqozalangan bo'ladi)

Korperasiya- birgalikdagi faoliyatning zaruriy elementi.

b) Raqobatga asoslangan o'zaro ta'sir- kommunikativ jarayon ishtirokchilarining shaxsiy yoki guruhiy maqsadlarga erishish uchun o'zaro kurash sharoitida bir-biriga ta'sir ko'rstishdan iborat. Bunday o'zaro ta'sirda tamonlarning shaxsiy faolligi odati yuqori bo'ladi. Shunday bo'lsada kooperatsiya bilan ma'lum darajada bog'liqdir. Chunki raqobat davomida ham muayyan qoidalar o'rnatilishi talab etiladi. Aks holda o'zaro kurash

urushga aylanib ketishi mumkin. Raqobatning eng yorqin shakli nizodir. Nizo-muloqot ishtirokchilarining har biri muhim bo'lgan namunani hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning kuchayib ketish jarayonidir.

Pedagog o'zida ijodiylik hissini shakllantirish va boshqarish uchun quyidagi avtotreninglarni qo'llashi mumkin.

- Men tinchman va xotirjamman
- Men ishonch bilan dars o'ta olaman
- Bolalar meni tinglashadi.
- Men darsga yaxshi tayyorlanganman.
- Dars juda qiziqarli bo'ladi.
- Bolalarning men bilan birga bo'lishlari juda qiziqarli.
- Kayfiyatim yaxshi.
- Menga darsda ishlash yoqadi.

Pedagogic faoliyat jarayonidagi muloqotni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. O'quvchi va pedagog muloqotining umumiy tuzulishi
2. Pedagogik faoliyatning aniq bosqichi uchun xos bo'lgan muloqot tizimi
3. Aniq pedagogic va kommunikativ masalalarni yechishda namoyon bo'ladigan muloqotning vaziyat tizimi.\

Pedagog va ta'lim oluvchilarning ijtimoiy pedagogic ta'sir xususiyatini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushunish mumkin.

- a. Pedagogning kommunikativ imkoniyatlari.

b. Pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi, masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu yerda biz tilning uchunchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira, tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to'qnash keldik. So'z belgilari tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalanniladi.

Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish , o'z harakatlarini rivojlantirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til aloqa vositasi yoki quroldir. Nutq faoliyati yoki nutq esa aloqa jarayonining o'zidir. Bu jarayonda nutq faoliyati faol va passiv nutq hisoblanadi.

Monolog-bir kishining o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Bu o'qituvchining bayoni, o'quvchining to'laroq javobi, ma'ruza va boshqalardir.

Monologik nutq ma'lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, gramatik qoidalarning saqlanishiga, mantiq shakllanmagan bo'ladi.

Pedagogic faoliyatning muhim jihati e'tiborini o'ziga tortish bo'lib, bola bilan samarali muloqotni amalga oshirish uchun dars jarayonida bolaning diqqati barqaror bo'lishi kerak. o'ziga jalb qilishning quyidagi usullari mavjud:

- Verbal muloqotda bo'lish
- Tanafus qilish
- Aralash usullar.

Darsda ko'pincha aralash variant usulidan foydalaniladi. Olimlarning fikricha yuz ifodasi va imo-ishoralar orqali ma'ruzada 40 % axborot beriladi.

Obyektning qalbini zabt etish bosqichi pedagogik muloqotni tashkillantirishda katta ahamiyatga ega.

1.2. Pedagogik muloqot jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.

Pedagogic muloqot – pedagogic tizimning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonining professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi.

Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishinming asosi sifatida o'zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O'quvchilar ham o'qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar.

Bu pedagogic ta'sirning samarali yo'li bo'lib tajribali pedagogning bolaning o'z-o'zini hurmatlashga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu orqali o'zaro munosabatlarni amalga oshiradilar. Muloqotning o'ziga xos 3 ta xususiyati mavjud: makro daraja-insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-axloq normalariga suyangan holda amalga oshiriladi.

Mezzo daraja (o'rta) – muloqot ma'lum mavzu bo'yicha kechadi.

Masalan, askiyada ma'lum mavzudan chekinmaslik.

Mikro daraja (kichik) – muloqotning shakllari savol-javob tarzida yuz beradi. Muloqotning turlari: shaxslararo, guruhiy, ommaviy-

kommunikatsiya(radio, TV, ro'znomalar) kabi turlari mavjud. [12. 82 bet]

Pedagogic muloqotda ijodiylik quyidagilarga bog'liq.

- o'quvchilar bilan o'zaro harakat qilish
- Birgalikda harakat qilish

Bolaga ta'sir qilishda uning hulq atvorini boshqarish o'zaro harakatning turli yo'llarini qo'llash.

O'qituvchining o'z-o'zini boshqara olishi.

- O'zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylik harakatini saqlay bilish [14. 35-36 bet]
- O'qituvchi o'quvchilar bilan ziddiyatlarga borsa qandaydir muommo tug'lsa darhol hal qilish lozim. Pedagogik muloqotdagi o'quvchi bolaning ko'ziga qarab uning hayolida nima kechayotganini bilib olish kerak.

Ijodiylik o'zaro munosabatlardan boshlanadi.

Har bir pedagog o'z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib bolalar bilan muloqotda bo'lishi nostandart usullarni izlab topishi kerak. Pedagogik ta'sir ham pedagogic muloqotdagi ijodiylik orqali amalga oshiriladi.

Ijodiylikni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- Bir necha o'qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o'quvchilarning kayfiyatini o'qituvchining bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarning o'rganish;

- O'qituvchining darsda qanday usullarni qo'llashi, muloqotni qanday shakllantirish, uquv- tarbiyaviy muommolarni yechishni aniqlash;
- O'zining muloqot texnologiyasini boshqa o'quvchining texnologiyasiga taqqoslashi;
- Tajribali o'quvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali muloqot jarayonidagi o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash;
- O'zining darsidagi muhit bilan boshqa tajribali o'quvchining darsidagi muhitning taqqoslash orqali hulosa chiqara olish [10.15-16 betlar]

Kasbiy pedagogic muloqot- murakkab hodisa. Shaxs kasbiy-pedagogik muloqot qilishdan avval o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi.

Jumladan, muloqot maqsadini, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o'tkazilishini rejalashtiradi. Pedagogik muloqotning eng muhim bosqichi- modellashtirish hisoblanadi. Bu bosqichdan muhim, ma'suliyatli muommoni hal qilishda foydalaniladi.

Masalan, darsga tayyorlanish, ma'ruzani rejalashtirish ham shu bosqichga kiradi. Kasbiy pedagogic muloqotning vazifasi- texnologiyani o'zlashtirish bo'lib, unda o'qituvchi iliq munosabatlarni qo'llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo'ladi.

Darsda tashabbusni qo'lga olish usullari quyidagilardan iborat.

- Sinf bilan aloqani yo'lga qo'yishda zudlik bilan harakat qilish;
- Tashkiliy ishlardan dars jarayonining muhim bosqichga tezlik bilan o'ta olish;
- Sinfning ijtimoiy- psixologik yakkaligini “ biz” hissini shakllantirish.

- Vaziyatga qarab bolalar bilan muloqot usullarini qo'llash;
- Butun sinf jamoasi bilan yaxlit aloqani tashkillashtirish;
- Latofat, samimiylik, sofdillikni o'zida shakillantira olish, darsda namoyon qila olish;
- Taqiqlangan pedagogic talablarni kuchaytirish, vaziyatga qarab ish tutish;
- Mimika (yuz ifodasi) pantomimika (harakatlar) ko'z bilan ta'sir qilish (noverbal muloqot)ni faol qo'llash;
- O'zaro bir-birini tushunishni his qilish.

Pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli bo'lishida o'quvchining kommunikativ madaniyati muhim o'rin egallaydi.

Bola o'qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Aks holda ishonchli, samimiy muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo'ladilar. O'qituvchi bola katta bo'layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyati shakillanayotganligidan dalolat beradi.

O'qituvchi o'zi uchun boshqalar bilan bo'ladigan muloqotning yaxlit portretini tuzib olish kerak. Bu auditoriya bilan bo'ladigan munosabatlarni tashkil qilishga yordam beradi. Pedagogik muloqot o'quv jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

O'qituvchi tarbiyachi va pedagog kommunikativ faoliyati pedagogic faoliyatdagi muloqotda muhim ro'l o'ynaydi.

Muloqotchanlik ko'p qatlamli bo'lib, uni quyidagi tarkibiy qisimlarga bo'lishi mumkin:

- 1- Muloqotga kirishuvchanlik- kommunikatsiya jarayonida qoniqishni his qila olish qobiliyati;
- 2- Ijtimoiy yaqinlik jamiyatda bo'lishga hohish kishilar orasida bo'lishga istagi;
- 3- Altruistic (boshqalar manfati uchun harakat qilish, yordam berish) yo'nalishlar.

Muloqotga kirishuvchanlik. Pedagogik faoliyatni tashlab ketgan o'qituvchilardan so'rovnoma asosida olingan ma'lumotlarga ko'ra, ularda muloqotchanlik sifatlari kasbiy fazilat sifatida shakillanmaganligi aniqlanmagan. Shu jumladan kuchsiz rahbarlarda ham xuddi shunday holat kuzatilgan.

Pedagogic faoliyatdagi muloqot uzoq, davomli muloqotdir.

Pedagog faoliyatda muloqotning turli bosqichlarda hissiy jihatdan o'zini his qilish muhim ro'l o'ynaydi.

Pedagog o'ziga darsga kirishdan avval ko'rsatma berishni o'rganishi lozim.

Pedagog o'zida ijodiylik hissini shakillantirish va boshqarish uchun quyidagi outotreninglarni qo'llashi mumkin:

- Men tinchman va hotirjamman.
- Men ishonch bilan dars o'ta olaman
- Bolalar meni tinglashadi
- Men darsga yaxshi tayyorlanganman
- Dars juda qiziqarli bo'ladi
- Bolalarning men bilan birga bo'lishlari juda qiziqarli;

- Kayfiyatim yaxshi
- Menga darsda ishlash yoqadi.

Pedagogic jarayondagi muloqotni quyidagicha tavsiflash mumkin.

1. O'quvchi va pedagog muloqoti tizimining umumiy tuzilishi (muloqotning aniq usuli)
2. Pedagogic faoliyatning aniq bosqichi uchun hos bo'lgan muloqot tizimi.
3. Aniq pedagogic va kommunikativ masalalarni yechishda namoyon bo'ladigan muloqotning vaziyatli tizimi.

Pedagog va talim oluvchilarning ijtimoiy psixologik ta'sir xususiyatlarini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushinish mumkin.

- a) Pedagogning kommunikativ imkoniyatlari
- b) Pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar tabiati;
- c) O'quvchilar jamoasining xususiyatlari

Muloqot uslublari quyidagilar kiradi:

- 1- Hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqish asosidagi muloqot
- 2- Do'stona munosabatlar asosidagi muloqot
- 3- Masofadan turib muloqotga kirishish
- 4- Qo'rqitish (qo'rquv) asosidagi muloqot
- 5- Soxta obro' - e'tibor qaratish uchun tashkil qilinadigan muloqot

Birinchi uslub asosida pedagogning yuqori kasb etikasi tashkil etadi.

Ikkinchi munosabatda asosan do'stona munosabatlar o'quv tarbiyaviy faoliyatda shakillanadi

Uchinchi uslub yani masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Masofa juda uzoq bo'lmali lozim. Aks holda rasmiyatchilik kuchayib ijodiylik muhiti shakillanmaydi. Pedagog masofani saqlasa obro'- etibor oshadi.

To'rtinchi uslub qo'rqish-qo'rqitish asosidagi muloqot bo'lib bu uslub muloqotning negative shaklidir. Bazi pedagoglar o'quvchilarning qo'rqitish orqali muloqotda bo'ladi.

Chunki ularda pedagogic mahorat yaxshi shakillanmagan bo'ladi.

Birinchi uslub- sohta obro'- etibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo'lib yosh o'qituvchilar malakasi yetarli bo'lmagani uchun yolg'on ishlatadilar. Bu bilan o'qituvchi o'quvchi bilan tezroq muloqotda bo'lib olishga harakat qiladilar. Bunday usulni qo'llayotgan pedagogda umumiy pedagogic kommunikativ madaniyati yetishmaydi.

O'qituvchilar va ijtimoiy- psixologik partretini baholash tizimini shakillantirishga qaratilgan metodikalarni ishonchliligi, valentligi va ularning obektivligini tekshirish maqsadida kasb- hunar kolleji faoliyat yurayotgan va tahsil olayotgan talabalar ustida tajriba sinov ishlari amalga oshiriladi.

Tajriba sinov natijalarida o'qituvchining psixologik qiyofasining tabiiy va gumanitar yo'nalishida faoliyat yuritayotgan professor o'qituvchilar o'ziga xoslikni, o'xshash va farqlarni izoxlash imkonini beradi.

Shuningdek maktab va kasb hunar kollejida tahsil berayotgan o'qituvchilarda " psixoemotsional holat" da ularning asblari ancha sezgirligi

kayfiyatlari ko'proq, tashqi omillarga bog'liqligi noqulay vaziyatlarda esa ular asabiylashadilar. Muloqotda suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o'qituvchi o'quvchilar uni qanday ishtirok etayotganligini tushunayotganligini anglay olmasa pedagogic muloqot yaxshi bo'laymaydi. Ayniqsa ma'ruza yozayotganda bu juda muhimdir. Radio-televidenyada so'zlayotgan kishi teskari aloqani ololmay qiynaladi, bazan fikirlovchi chalkashib ketishi odatdagi ohang yo'qolishi mumkin. Agar hamsuhbatni ko'rish orqali idrok etish imkoniyati bo'lmasa qo'l barmoqlari va yuz harakati orqali imo- ishoralar kambag'allashib harakatlar erkinligini yo'qotib qo'yadi.

Hamsuhbatning fe'l atvorini idrok etish chog'ida olinadigan signallar shaxsning keying harakatkar fikrlarini to'g'irlab boorish uchun asos bo'ladi. Umuman hamsuhbat yoki tinglovchini idrok etish muloqot vaqtida o'zaro hamjihatlikka erishishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. O'qituvchining ma'ruza vaqtida aloqaga ega bo'lishi laborotoriya va amaliy mashg'ulotlardagiga qaraganda qiyin. Demak, shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa habar beruvchi vazifani va o'zini- o'zi boshqarish vazifasini bajaradi. Kishining jisminiy qiyofasidagi ayrim belgilar, o'zini tutishi qo'llari va gavdasini qimirlatib imo-ishora qilishi so'zlash ohangi ahborot tashuvchilar sifatida hizmat qiladi.

Trening inglizcha "mahsus rejim mashq" degan ma'noni bildiradi. Kishilarda muloqot malakalari tasodifan yoki ta'lim mahsuli sifatida shakillanib boradi. Masalan o'quvchilarni to'liq muassal va aniq javob

berishga, o'zidan kattaga muomala qilinganda o'rnidan turishga o'rgatib boriladi.

Ijtimoiy- psixologik trening 2 xil vazifani

- 1- Muloqot va pedagogic muomala qonuniyatlarini o'rganish;
- 2- Pedagogic kommunikativ texnologiyasini egallash kasbiy pedagogic muomala, ko'nikma va malakalarni shakillantirishni ta'minlaydi.